МИНИАТЮРА И МУЗЕЙНЫЕ ФОНДЫ КАК ИСТОЧНИКИ ИЗУЧЕНИЯ ИСТОРИКО-АРХИТЕКТУРНОГО НАСЛЕДИЯ УЗБЕКИСТАНА

Р. З. Хайров
Гулистанский государственный педагогический институт
доцент кафедры «Искусствоведение»,
доктор философии (PhD) по педагогическим наукам
Тел.: +998994754475

Аннотация: В статье рассматривается значение восточной миниатюры, музейных коллекций и образцов прикладного искусства как визуальных источников изучения историко-архитектурного наследия Узбекистана. Обосновывается их информационный, художественный, исторический и педагогический потенциал в современном искусствоведческом исследовании.



Ключевые слова: миниатюра, музей, музейные фонды, история, архитектура, рукопись, искусство, прикладное искусство, визуальный источник, образование, искусствоведение.

Изучение историко-архитектурного наследия Узбекистана требует обращения не только к письменным и археологическим источникам, но и к произведениям изобразительного и прикладного искусства. Особое место среди таких источников занимает миниатюра, поскольку в ней зафиксированы представления о городской среде, дворцовой и бытовой архитектуре, интерьерах, костюме, ремеслах и различных формах общественной жизни. Как отмечает А. Хакимов, художественное наследие Узбекистана необходимо рассматривать в его исторической динамике, учитывая взаимосвязь художественных традиций и культурных процессов [Хакимов А.А., 121].

Восточная миниатюра формировалась в тесной связи с рукописной книгой. Поэтому миниатюрное изображение представляет собой не только самостоятельное художественное произведение, но и своеобразный визуальный документ. Композиции рукописей позволяют реконструировать отдельные особенности исторической среды, которые не всегда сохраняются в архитектурных памятниках. В этом отношении особенно значимы произведения, связанные с культурой эпохи Темуридов и последующих государств Центральной Азии.

Существенное значение для изучения восточной миниатюры имеет исследование М. М. Ашрафи «От Бехзада до Риза-йи Аббаси. Развитие миниатюры XVI-начала XVII века», в котором рассматриваются основные этапы становления и развития миниатюрной живописи Востока, художественные школы и особенности творчества мастеров XVI-начала XVII века [Ашрафи М.М., 45-52]. Особое внимание уделяется преемственности художественных традиций, взаимодействию различных миниатюрных школ и роли выдающихся мастеров в формировании художественного языка восточной миниатюры. Эти положения позволяют рассматривать миниатюрные изображения как важный визуальный источник при исследовании историко-культурной среды Центральной Азии и сопоставлять их с сохранившимися памятниками архитектуры, письменными и археологическими материалами.

Особенно показательны миниатюры, в которых изображены дворцы, медресе, городские площади, сады, павильоны и жилые постройки. При анализе подобных произведений важно учитывать специфику художественного языка миниатюры. Художник не стремился к фотографической фиксации

пространства: архитектура подчинялась композиции, ритму, символике и повествовательной задаче. Поэтому миниатюра не может рассматриваться как точный чертеж здания. Вместе с тем она содержит ценную совокупность признаков - характер членения фасада, форму арок и куполов, расположение окон, декоративные элементы, особенности интерьера и организацию пространства. Именно сопоставительный анализ позволяет использовать эти сведения в историко-искусствоведческом исследовании.



Рисунок 1. Взаимосвязь миниатюры, музейных фондов и историко-архитектурного наследия Узбекистана.

Важным направлением является изучение музейных фондов. Музейная коллекция представляет собой систематизированный комплекс материальных свидетельств, каждое из которых получает дополнительную научную ценность благодаря атрибуции, датировке, описанию происхождения и сопоставлению с другими предметами (Рис. 1). В Музее искусства восточной миниатюры имени Камолиддина Бехзода хранятся образцы миниатюрной живописи, рукописные материалы и произведения прикладного искусства, связанные с художественными школами Бухары, Самарканда, Герата, Тебриза и Исфахана. Деятельность музея объединяет хранение, научное изучение, реставрацию и популяризацию художественного наследия Востока.

В научном отношении музейный предмет необходимо рассматривать как часть историко-культурного контекста. При этом музейная экспозиция должна рассматриваться не только как пространство демонстрации, но и как научно организованная система коммуникации. Корректная этикетка, цифровой паспорт предмета, сведения о происхождении и реставрации существенно повышают исследовательскую ценность коллекции. Для студентов

искусствоведческих специальностей это создает возможность осваивать методы атрибуции и визуального анализа непосредственно на материале национального художественного наследия.

Не менее важным является вопрос критической интерпретации визуального материала. Исследователь должен различать документальную информацию и художественную условность. Повторяющиеся архитектурные мотивы, устойчивые схемы изображения и детали предметного мира становятся надежнее как исторические свидетельства тогда, когда подтверждаются несколькими независимыми источниками. Поэтому методика работы с миниатюрой должна включать атрибуцию произведения, определение времени и места его создания, установление литературного сюжета, анализ художественной манеры и сопоставление с археологическими и архитектурными данными. Такой алгоритм особенно продуктивен при изучении Самарканда, Бухары и других исторических центров Узбекистана. Он позволяет перейти от простого описания изображения к реконструкции культурной среды, в которой создавались памятники.

Особый интерес представляет взаимосвязь миниатюры и прикладного искусства. В традиционной культуре Узбекистана художественная образность существовала в единой системе: книжная иллюстрация, орнамент, керамика, текстиль, металлические изделия и архитектурный декор взаимодействовали между собой. Это позволяет исследователю выявлять устойчивые мотивы, композиционные схемы и символические значения. Исследования З. Сулаймоновой показывают, что развитие миниатюры может рассматриваться не только с формально-стилистической, но и с философско-эстетической точки зрения [Сулаймонова З., 48-49].

Современная музейная практика расширяет возможности такого анализа. Цифровизация коллекций, создание электронных каталогов, высококачественная фотографическая фиксация и цифровая реконструкция позволяют сопоставлять предметы, хранящиеся в разных учреждениях. В результате исследователь получает возможность формировать комплексные базы визуальных источников. Это особенно важно для памятников, отдельные элементы которых утрачены, перестроены или сохранились фрагментарно.

Для художественного образования работа с музейными фондами имеет также методическое значение. Изучение миниатюры и прикладного искусства позволяет студентам воспринимать историко-культурное наследие не как совокупность дат и названий, а как систему конкретных визуальных образов.

Анализ композиции, цвета, орнамента, архитектурных деталей и бытовых сцен развивает наблюдательность, художественное мышление и навыки искусствоведческого анализа. В учебном процессе целесообразно организовывать задания по сопоставлению миниатюр с фотографиями и чертежами архитектурных памятников, составлению визуальных реконструкций и подготовке музейных аннотаций.

Таким образом, миниатюра, музейные фонды и произведения прикладного искусства образуют важный комплекс источников для исследования историко-архитектурного наследия Узбекистана. Их научная ценность раскрывается наиболее полно при междисциплинарном подходе, объединяющем искусствоведение, историю, археологию, музееведение и образование. Перспективным направлением является создание цифровых исследовательских платформ, где изображения миниатюр, музейные предметы, письменные источники и данные об архитектурных памятниках будут связаны в единую информационную систему. Такой подход способствует более глубокому пониманию художественной культуры Узбекистана и создает условия для сохранения и передачи историко-культурного наследия будущим поколениям.

ЛИТЕРАТУРА

1. Хакимов А.А. Искусство Узбекистана: история и современность. - Ташкент: Изд-во журнала «San’at», 2010. – 504 с.
2. Ашрафи М.М. От Бехзада до Риза-йи Аббаси. Развитие миниатюры XVI-начала XVII века. - Ташкент: МИЦАИ; SMI-ASIA, 2011. - 175 с.
3. Сулаймонова З. Миниатюра санъати ривожланишининг фалсафий-эстетик талқини // Фалсафа ва ҳуқуқ. - 2010. - № 2. - Б. 48-49.
4. Шоёкубов Ш. Современная миниатюра Узбекистана. - Ташкент: Ўзбекистон, 2006. - 376 с.
5. O‘zbekiston san’ati. - Ташкент: Издательско-полиграфическая акционерная компания «Шарк», 2001.
6. Музей искусства восточной миниатюры имени Камолиддина Бехзода. Официальные материалы музея.

MUZEY FONDLARI – O‘ZBEKISTON TARIXIY-ME’MORIY MEROSINI TADQIQ ETISHNING MUHIM MANBASI

G‘.M.Xolmatov
Namangan davlat pedagogika instituti
Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi
katta o‘qituvchisi (PhD)
+998 (93)-674-66-69

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston hududidagi tarixiy-me’moriy merosni o‘rganishda muzey fondlarining ilmiy va manbashunoslik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Muzey fondlarida saqlanayotgan arxeologik topilmalar, me’moriy bezak elementlari, kulolchilik, kandakorlik, yog‘och o‘ymakorligi, ganchkorlik, to‘qimachilik va boshqa amaliy san’at namunalari tarixiy obidalarning yaratilish davri, badiiy xususiyatlari, texnologik an’analari hamda ularni yaratgan jamiyatning madaniy hayoti haqida muhim ma’lumot beradi.

Kalit so‘zlar: muzey fondlari, tarixiy meros, me’moriy obidalar, muzeyshunoslik, arxeologik topilmalar, amaliy san’at, restavratsiya, konservatsiya, madaniy meros.

O‘zbekiston hududi qadimdan Sharq va G‘arb sivilizatsiyalari tutashgan, shaharsozlik, me’morchilik, hunarmandchilik va amaliy san’at yuksak darajada rivojlangan hududlardan biri sifatida tarixda muhim o‘rin egallab kelgan. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Qarshi, Toshkent va boshqa tarixiy shaharlarda shakllangan me’moriy maktablar xalqimizning ko‘p asrlik moddiy va ma’naviy madaniyatini o‘zida mujassamlashtiradi. Masjid, madrasa, maqbara, saroy, karvonsaroy, qal’a va boshqa inshootlar nafaqat me’moriy yodgorlik, balki muayyan davrning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, diniy va estetik qarashlarini aks ettiruvchi tarixiy manba hisoblanadi.

Bugungi kunda viloyat, shahar, tuman markazlarida, xalq ta’lim tizimida 1200 dan ortiq muzeylar bo‘lib, ularning eng yiriklari poytaxtimizda joylashgan. SHu bilan birga, o‘nlab yozuvchilar, shoirlar rassomlar, olimlar va mashhur san’at arboblarining uy muzeylari mavjud. Ushbu muzeylarda xalqimizning uzoq tarixidan hikoya qiluvchi, milliy mafkura va tafakkurni rivojlantiruvchi, yoshlarda milliy g‘urur va iftixorni yuksaltirishga xizmat qiluvchi ekspozitsiyalar qo‘yilgan [Asqarov A.: 108].

Muzey fondining ilmiy ahamiyati faqat unda saqlanayotgan eksponatlarning soni bilan belgilanmaydi. Ularning kelib chiqishi, topilgan joyi, davri, materiali, ishlab chiqarish texnologiyasi, bezak xususiyatlari, funksional vazifasi va boshqa ilmiy-pasport ma’lumotlari tarixiy tadqiqot uchun muhimdir. Shu jihatdan muzey fondlari tarixiy-me’moriy obidalarni alohida yodgorlik sifatida emas, balki ularni yaratgan ijtimoiy-madaniy muhit bilan birgalikda o‘rganish imkonini beradi.

O‘zbekiston muzeylarida saqlanayotgan arxeologik materiallar mamlakat hududida qadimdan mavjud bo‘lgan shaharsozlik va me’morchilik madaniyatining shakllanish bosqichlarini aniqlashda muhim manba hisoblanadi. Arxeologik qazishmalar natijasida topilgan sopol buyumlar, qurilish materiallari, naqshli terrakotalar, g‘isht namunalari, metall buyumlar, me’moriy bezak qismlari va boshqa ashyolar orqali qadimgi va o‘rta asr shaharlarining moddiy madaniyati haqida tasavvur hosil qilish mumkin [Suyunova M.: 164].

Ayniqsa, me’moriy obidalardan topilgan yoki ularning tarkibiy qismlari sifatida muzey fondlariga olingan bezak elementlari alohida ilmiy qiymatga ega. Masalan, sirlangan koshinlar, terrakota plitalari, ganchkorlik namunalari, yog‘och o‘ymakorligi qismlari va epigrafik yozuvlar me’moriy inshootlarning badiiy qiyofasini tiklash uchun muhim dalil bo‘lib xizmat qiladi. Ayrim hollarda obidaning o‘zida saqlanib qolmagan bezak elementlari muzey fondidagi namunalar asosida qiyosiy o‘rganilishi mumkin.

Tarixiy-me’moriy merosni tadqiq etishda muzey fondlarining yana bir muhim jihati shundaki, ular turli davrlarga oid moddiy manbalarni bir makonda jamlaydi. Ashyoni o‘rganish jarayonida yoki bevosita ekspozitsion zarurat uchun yaratilgan rekonstruksiyalar, maketlar, modellar, xaritalar, loyihalar, grafiklar, jadvallar, chizmalar, shartli tasvirlar ilmiy yordamchi material deyiladi. Ulaming ayrimlari, ba’zi bir sabablarga ko‘ra ekspozitsiyaga joylashtirib bo‘lmaydigan ashyolaming tashqi qiyofasini tasavvur qilishga imkoniyat yaratadi. Boshqalari, ashyo haqida qo‘shimcha axborot beradi [Qurbonova D.: 20]. Natijada tadqiqotchi ma’lum hududning madaniy taraqqiyotini uzoq tarixiy davr kesimida qiyoslash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Masalan, Samarqand yoki Buxoro hududidan topilgan turli davrlarga oid kulolchilik, metallga ishlov berish, yog‘och o‘ymakorligi va me’moriy bezak namunalarini o‘rganish orqali ushbu shaharlarda badiiy-hunarmandchilik an’analarining davomiyligi va o‘zgarishlarini aniqlash mumkin.

Muzey fondlari tarixiy-me’moriy obidalarni restavratsiya qilish jarayonida ham katta ahamiyatga ega. Restavratsiyaning asosiy talablaridan biri tarixiy yodgorlikning asl qiyofasini imkon qadar ilmiy asosda tiklashdir. Bunda faqat zamonaviy tasavvur yoki umumiy badiiy andozalarga tayanish yetarli emas. Obidaning qurilish davri, me’moriy uslubi, bezak motivlari va ishlatilgan materiallarini aniqlash uchun turli tarixiy manbalarni, jumladan muzey fondlaridagi ashyolarni o‘rganish talab etiladi [Izatullayeva M.: 61].

Muzey fondlaridagi namunalar restavrator uchun o‘ziga xos “moddiy dalil” vazifasini bajarishi mumkin. Masalan, tarixiy binoda saqlanib qolmagan koshin

naqshining boshqa namunasi muzey fondida mavjud bo‘lsa, uning geometrik shakli, ranglar uyg‘unligi, naqsh kompozitsiyasi va ishlab chiqarish texnologiyasi qiyosiy tahlil qilinadi. Bu esa restavratsiya ishlarida ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini kengaytiradi.

Muzey fondlarining tarixiy-me’moriy merosni o‘rganishdagi ahamiyati fotosurat, chizma, eskiz, xarita va boshqa tasviriy materiallar bilan yanada kengayadi. Ayniqsa, XIX–XX asrlarda yaratilgan tarixiy fotosuratlar ayrim obidalarning avvalgi holatini o‘rganish imkonini beradi. Vaqt o‘tishi bilan buzilgan, qayta qurilgan yoki ayrim bezak elementlarini yo‘qotgan me’moriy yodgorliklarning oldingi ko‘rinishini tarixiy fotosuratlar orqali aniqlash mumkin. Muzey fondlaridagi bunday tasviriy materiallarni zamonaviy fotografik va arxitektura o‘lchovlari bilan qiyoslash restavratsiya tarixini ham o‘rganish imkonini beradi.

Bundan tashqari, muzey fondlari tarixiy-me’moriy obidalarni faqat moddiy obyekt sifatida emas, balki xalqning ijtimoiy va ma’naviy hayoti bilan bog‘liq hodisa sifatida tadqiq etishga imkon beradi. Masjid va madrasalar, saroy va karvonsaroylar, bozor va hammomlar kabi inshootlarning vazifasi ularni yaratgan jamiyatning ehtiyojlari va ijtimoiy munosabatlarini aks ettirgan. Muzeylarda saqlanayotgan maishiy buyumlar, hunarmandchilik mahsulotlari, yozuvli ashyolar va boshqa materiallar ushbu inshootlarning kundalik hayotdagi o‘rnini tushunishga yordam beradi [Султанова Г.О.: 41].

Masalan, tarixiy shaharlardagi hunarmandchilik markazlari bilan bog‘liq buyumlarni o‘rganish orqali ma’lum bir me’moriy majmuaning iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalarini yanada chuqurroq anglash mumkin. Shu ma’noda muzey fondi va tarixiy-me’moriy obida o‘rtasida uzviy ilmiy bog‘liqlik mavjud. Biri moddiy dalilni saqlasa, ikkinchisi ushbu dalil yaratilgan tarixiy-madaniy makonni namoyon etadi.

Bugungi kunda muzey fondlarini raqamlashtirish jarayoni ham tarixiy-me’moriy merosni tadqiq etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Eksponatlarning elektron kataloglarini yaratish, yuqori aniqlikdagi fotografik tasvirlarni saqlash, uch o‘lchamli modellashtirish va raqamli arxivlardan foydalanish tadqiqotchilarga noyob materiallarni masofadan turib o‘rganish imkonini beradi. Bu ayniqsa turli muzeylar fondlarida saqlanayotgan bir xil yoki o‘xshash tarixiy ashyolarni qiyosiy tadqiq qilish uchun qulay sharoit yaratadi.

Raqamlashtirish jarayonida eksponatning faqat tashqi ko‘rinishini emas, balki uning ilmiy tavsifi, kelib chiqish joyi, inventar ma’lumotlari, material tarkibi, o‘lchamlari va ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan ma’lumotlarini yagona tizimga kiritish muhimdir. Shundagina muzey fondlari zamonaviy tarix, arxeologiya,

san’atshunoslik, me’morchilik va restavratsiya tadqiqotlari uchun samarali ilmiy platformaga aylanishi mumkin.

Muzey fondlari bilan tarixiy-me’moriy merosni tadqiq etishning yana bir muhim jihati fanlararo yondashuvdir. Tarixchi uchun muzey ashyosi tarixiy voqea yoki jarayonning moddiy dalili bo‘lsa, arxeolog uchun stratigrafik va madaniy qatlam bilan bog‘liq manba, san’atshunos uchun badiiy uslub va kompozitsiya namunasi, me’mor-restavrator uchun esa qurilish va bezak texnologiyasini aniqlash vositasi bo‘lishi mumkin. Shu bois muzey fondlarini samarali o‘rganish tarix, arxeologiya, me’morchilik, san’atshunoslik, antropologiya va madaniyatshunoslik fanlarining o‘zaro hamkorligini talab etadi [Бекмуродов М.Б.: 84].

O‘zbekiston tarixiy-me’moriy merosini o‘rganishda muzey fondlarining imkoniyatlarini yanada kengaytirish uchun bir qator ilmiy-amaliy vazifalarni amalga oshirish zarur. Avvalo, muzeylarda saqlanayotgan tarixiy va me’moriy xarakterdagi ashyolarni zamonaviy ilmiy mezonlar asosida inventarizatsiya qilish, ularning kelib chiqishi va ilmiy pasportlarini takomillashtirish muhim. Ikkinchidan, tarixiy-me’moriy obidalar bilan bog‘liq eksponatlarning yagona elektron ma’lumotlar bazasini shakllantirish maqsadga muvofiq. Uchinchidan, muzey xodimlari, tarixchilar, arxeologlar, san’atshunoslar va restavratorlarning qo‘shma tadqiqotlarini ko‘paytirish lozim.

Shuningdek, muzey fondlaridagi noyob namunalarni ilmiy kataloglar, albomlar va elektron nashrlar orqali ilmiy jamoatchilikka kengroq taqdim etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv muzeyni faqat eksponatlarni saqlovchi muassasa sifatidagi an’anaviy tasavvurdan chiqarib, uni faol ilmiy-tadqiqot markaziga aylantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston muzeylarining fondlarida saqlanayotgan moddiy va tasviriy manbalar mamlakat tarixiy-me’moriy merosini chuqur o‘rganish uchun katta ilmiy imkoniyatlarga ega. Arxeologik topilmalar, me’moriy bezak qismlari, amaliy san’at namunalari, tarixiy fotosuratlar, chizmalar va boshqa muzey ashyolari tarixiy obidalarning shakllanishi, rivojlanishi, badiiy qiyofasi va jamiyat hayotidagi o‘rnini aniqlashda muhim manba vazifasini bajaradi.

Muzey fondlarining ahamiyati ayniqsa tarixiy-me’moriy obidalarni restavratsiya va konservatsiya qilish, ularning asl badiiy qiyofasini ilmiy asosda tiklash hamda tarixiy-madaniy jarayonlarni fanlararo yondashuv asosida tadqiq etishda yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu sababli muzey fondlarini muntazam ilmiy o‘rganish, ularni raqamlashtirish, kataloglashtirish va tadqiqotchilar uchun ochiq ilmiy resursga

aylantirish O‘zbekistonning tarixiy-me’moriy merosini asrash va kelajak avlodga yetkazishning muhim shartlaridan biridir.

Muzey fondlarini tarixiy-me’moriy meros tadqiqotlarining faol ilmiy manbasi sifatida qarash nafaqat mavjud bilimlarni boyitadi, balki ilgari yetarlicha o‘rganilmagan moddiy dalillar asosida yangi ilmiy xulosalar chiqarish imkonini ham beradi. Demak, muzey fondi — bu faqat o‘tmishdan qolgan buyumlar majmuasi emas, balki O‘zbekistonning tarixiy xotirasi, moddiy madaniyati va me’moriy taraqqiyotini anglashga xizmat qiluvchi muhim ilmiy manbalar tizimidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Asqarov Q. Tarixiy olkashunoslik va turizm. – Qoqon: “Davr-nashr”, 2022. –115 b.
2. Suyunova M. Muzeylar madaniy xotira va milliy o‘zlikni shakllantirish vositasi sifatida. "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal Volume 7 Issue 1. January 2026.
3. Muzeyshunoslik. O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz. - T.: “Turon-Iqbol”, 2018.-260 b.
4. Izatullayeva M. XXI-asrda muzeyshunoslik nazariyasi va muzeylarni boshqarish amaliyotining dolzarb masalalari. REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “ACTUAL ISSUES OF THE THEORY OF MUSEUM STUDIES AND THE PRACTICE OF MUSEUM MANAGEMENT IN THE XXI CENTURY”, MAY 14, 2025.
5. Султанова Г.О.Хоразм амалий санъати асарларини музейлаштиришда терминларни ўрганишнинг аҳамияти. Замонавий тасвирий ва амалий санъат: терминология, ютуқлар ва муаммолар (Республика илмий-амалий семинар материаллари тўплами). – Тошкент: 2022. -160 б.
6. Бекмуродов М.Б., Рашидова М.Х. Музейшунослик. – Тошкент: 2005. -110 б.
7. Исмоилова Ж.Ҳ. «Замонавий музейшунослик асослари». – Тошкент: Турон Замин Зиё, 2016.-133 б.